



BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2023- YIL
YANVAR-MART**

2023-yilning yanvar-mart oyida, Buxoro viloyatida jami **1 717,2 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2022-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan **103,1 %** ni tashkil etdi.**



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Norasmiy sektor

19,5

28,2

52,3

Yirik korxona va
tashkilotlar

Kichik korxona
va mikrofirmalar

Yillar kesimida soni

Bino va inshootlar qurish


1 438

Fuqarolik obyektlarini qurish

345

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

696

Hududlar kesimida

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o’sishiga o’zining munosib hissasini qo’shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda o’sish sur’ati 84,2 foizni tashkil qildi.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 58,0 foiz ulushi tashkil etib, o’sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 80,4 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 13,9 foiz ulushi tashkil etib, o’sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 115,8 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 28,1 foiz ulushni va 81,2 foiz o’sish sur’atini tashkil etdi.

	Holatiga :		o‘tgan yiliga nisbatan, % da
	01.04.2022- y.	01.04.2023- y.	
Buxoro viloyati	2 868	2 791	97,3
Buxoro shahri	925	963	104,1
Kogon shahri	119	129	108,4
<i>tumanlar:</i>			
Olot	78	73	93,6
Buxoro	229	182	79,5
Vobkent	124	109	87,9
G‘ijduvon	198	150	75,8
Kogon	149	131	87,9
Qorako‘l	107	103	96,3
Qorovulbozor	55	56	101,8
Peshko‘	172	155	90,1
Romitan	261	228	87,4
Jondor	244	207	84,8
Shofirkon	246	205	83,3



**2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra
Buxoro viloyatida
faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish
korxonalari ulushi, % da**




Buxoro sh. (31,3)



Romitan t. (9,2)



Jondor t. (8,3)



Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-mart uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	1 717,2	334,1	898,2	484,9
Buxoro sh.	401,5	64,1	225,9	111,5
Kogon sh.	54,8	23,0	18,0	13,8
tumanlar:				
Olot	115,5	35,5	51,5	28,5
Buxoro	133,8	3,3	85,2	45,3
Vobkent	54,4	-	29,6	24,8
Gijduvon	134,3	-	83,9	50,4
Kogon	129,2	35,5	59,8	33,9
Qorako'l	86,7	0,1	62,4	24,2
Qorovulbozor	97,4	80,6	12,9	3,9
Peshko'	109,0	-	68,2	40,8
Romitan	182,2	80,2	51,5	50,5
Jondor	111,4	-	82,0	29,4
Shofirkon	107,0	11,8	67,3	27,9


 2023- yilning yanvar-mart oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 334,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilning mos davriga nisbatan 101,2 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 0,5 % punktg'a kamayib, 19,5 % ni tashkil etdi.


Qurilish ishlari

2023- yil yanvar-mart uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 82,7 % i yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 78,4%), Romitan tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 44,0% i yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 142,1 %) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 52,3% i to‘g‘ri kelib, 2022- yilning ko‘rsatkichiga nisbatan 0,1 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni tashkil etgan holda 898,2 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



52,3

2023-yil
yanvar-mart

52,4


2022- yil
yanvar-mart



MA’LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Jondor tumanida (81,9 mlrd. so‘m yoki umumiyligi hajmiga nisbatan 73,6 %), Qorako‘l tumanida (62,5 mlrd. so‘m yoki umumiyligi hajmiga nisbatan 72,1 %) va Buxoro tumanida (85,2 mlrd. so‘m yoki umumiyligi hajmiga nisbatan 63,6 %) ga to‘g‘ri keldi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 28,2 % ni tashkil etdi yoki 484,9 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,5 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 93,3 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 1 623,9 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 5,4 % va 94,6 % ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2023- yil yanvar-mart oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin **59,4 %** i yoki **1 019,6 mlrd. so'm** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

20,9 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **213,4 mlrd. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **20,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **367,8 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **36,1 %** ni tashkil etdi.

36,1 %

43,0 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **438,4 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **43,0 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-mart oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
Buxoro viloyati	1 717,2	103,1	100,0
<i>shahar:</i>			
Buxoro sh.	401,5	108,6	23,4
Kogon sh.	54,8	71,9	3,2
<i>tuman:</i>			
Olot	115,5	104,9	6,7
Buxoro	133,8	104,1	7,8
Vobkent	54,4	107,6	3,2
G'ijduvon	134,3	105,6	7,8
Kogon	129,2	102,3	7,5
Qorako'l	86,7	103,7	5,1
Qorovulbozor	97,4	78,8	5,7
Peshko'	109,0	103,3	6,3
Romitan	182,2	114,7	10,6
Jondor	111,4	108,0	6,5
Shofirkon	107,0	105,2	6,2



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da

11,2

2022- yil
yanvar-mart

9,3

47,6

49,0

41,2

41,7

2023- yil
yanvar-mart



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxona
va mikrofirmalar



Norasmiy
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 9,3 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,9 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,4 % punktga ko'payib, 49,0 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektoring ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,5 % punktga ko'payib, 41,7 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 37,8 % ni tashkil etdi va 2022-yilga nisbatan 7,1 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 62,2 % (7,1 % punktga kamayish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari
2022-yil yanvar-mart




Kichik korxona
va mikrofirmalar

Norasmiy
sektor

2023-yil
yanvar-mart

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,8 % punktga kamaydi va 44,5 % ni tashkil etdi. Qolgan 55,5 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,8 % punktga ko'paydi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-mart

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	1 717,2	1 160,7	314,8	241,7
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	401,5	251,3	111,5	38,7
Kogon sh.	54,8	34,9	11,6	8,3
<i>tuman:</i>				
Olot	115,5	62,5	10,6	42,4
Buxoro	133,8	104,0	17,2	12,6
Vobkent	54,4	44,8	6,3	3,3
G'ijduvon	134,3	105,1	17,0	12,2
Kogon	129,2	74,5	45,2	9,5
Qorako'l	86,7	65,7	13,2	7,8
Qorovulbozor	97,4	23,1	5,5	68,8
Peshko'	109,0	85,2	13,8	10,0
Romitan	182,2	161,7	14,2	6,3
Jondor	111,4	83,1	16,7	11,6
Shofirkon	107,0	64,8	32,0	10,2




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari

2023- yil yanvar-mart



ulushi % da



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-mart uchun

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming. so'm	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	853,0	101,4
<i>shahar:</i>		
Buxoro sh.	1 385,3	106,6
Kogon sh.	859,3	70,4
<i>tuman:</i>		
Olot	1 121,8	103,4
Buxoro	763,8	102,5
Vobkent	372,7	105,9
G'ijduvon	422,7	103,8
Kogon	1 559,9	100,5
Qorako'l	510,6	102,3
Qorovulbozor	4 971,1	76,8
Peshko'	844,4	101,5
Romitan	1 221,0	112,7
Jondor	610,2	106,3
Shofirkon	579,9	103,7



Hududlar kesimida 2023- yil yanvar-mart oylariida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Qorovulbozor tumani — 4 971,1 ming so'm (yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 76,8 %), undan keyin mos ravishda Kogon tumani – 1 559,9 ming so'm (yoki 100,5 %), Buxoro shahri – 1 385,3 ming so'm (yoki 106,6 %), Romitan tumani – 1 221,0 ming so'm (yoki 112,7 %) va Olot tumani – 1 121,8 ming so'm (yoki 103,4 %) egalladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(65) 223-81-99**